

BOBUR ILMIY MEROSINING BUGUNGI KUN ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

*Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo tillari va madaniyati instituti
Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi
Azamatova Sevinch Shuxrat qizi
Ilmiy rahbar: dots. Rashidova Umida*

Annotatsiya. Ushbu maqola shoh va shoir buyuk davlat asoschisi Temuriylardan bo'lgan Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy merosini o'rganishga hamda hayotiga bag'ishlangan, Shohning elidan, yurtidan ayro yashaganida qiynalib buyuk sarkardalardan biri bo'lishi to'g'risida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, davlat boshqaruvi, ijodiy merosi, lirikasi, risolasi, ruboiylari, "Boburnoma" asari.

Kirish. O'zbek xalqining boy ilmiy-adabiy merosini jahon xalqlari mulkiga ko'tarilishda Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Al-Farobiy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy kabi o'nlab ulug' allomalar qatorida Zahiriddin Muhammad Umarshayx mirzo o'g'li Boburning nomi munosib o'rinni egallaydi. Uning yorqin shaxsiy va ijodiy faoliyati, davlat, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi katta mavqeyi avlodlar tomonidan zo'r hurmat-ehtirom bilan xotirlanib kelinmoqda[1,6].

Bo'lajak iste'dodli davlat arbobi, iqtidorli shoir va adib Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda Farg'ona viloyatining hukmdori Umarshayx mirzo va uning rafiqasi Qutlug' Nigorhonimlarning oilasida dunyoga keldi. Ma'rifatli hukmdor Umarshayx mirzo, shubhasiz, o'g'li Boburning ta'lim-tarbiyasiga ham katta ahamiyat beradi. Otasining to'satdan vafot etishi yosh Boburning davlat, el-yurt tashvishlari bilan yoshligidan band bo'lishiga majbur qildi. 1494-yilda otasi vafot etgandan so'ng 12 yoshli Zahiriddin Bobur podshoh qilib ko'tarildi. Uning keying faoliyatida otasining yaqinlaridan Shayx Mazidbek,

Boboqulbeklar bek-atka sifatida muhim rol o'ynaydilar. Zahiriddin uylanib Faxriniso, Humoyun mirzo, Kamron mirzo, Mirzo Askariy, Mirzo Hindol, Gulbadanbegim, Gulchehrabegim, Gulrangbegim kabi bir necha farzand ko'radi. Uning qisqa kechirgan hayoti (47 yillik umri) urush-janjallar orasida, goh xursandchilikda, goh cheksiz g'am-alamlar girdobida o'tdi. Bu haqida u "Boburnoma" da shunday yozgan: "O'n bir yoshimdan beri ikki Ramazon iydini payo pay bir yerda qilg'on ermas edim".

Haqiqatdan ham Bobur yashab ijod etgan zamon Movarounnahr va Xuroson tarixida g'oyat ziddiyatli bir davr edi. To'xtovsiz urushlarda toliqqan Boburning jangu jadallarda yegan zarbalari, Qandahor yo'lida qahraton kishning qorbo'ronlarida qolishi, Chirchiqning muzlagan suvini yorib, unda cho'milishlari, Hoja Kalon kabi yaqin kishilarning Hindistonni tashlab ketishi, ona diyor sog'inchi, o'g'lining xastaligini o'ziga o'tishini so'rab yolvorishlari natijasida kuchaygan ruxiy azoblar, shafqatsiz o'lim jahongashta sarkarda, nozik tabiat shoir va hassos olimni qirq yetti yoshda, ya'ni 1530-yilning 30-dekabrida bu foniyl dunyodan boqiy-abadiy dunyoga olib ketadi [1, 8].

Zahiriddin Muhammad Bobur naqadar sertashvish, notinch hayot kechirishiga qaramay, o'z davriga nisbatan yetuk bilim olib, yirik badiiy va chuqur mazmunli ilmiy asarlar ijodkori darajasiga ko'tarildi. U O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga, yirik davlat va siyosat arbobi, mohir sarkarda ham sanaladi. U keng dunyoqarashi va komil aql-zakovati bilan Hindistonda ma'rifatparvar davlat arbobi sifatida nom qozongan bo'lsa, "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavislari qatoridan ham joy olgan. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatning eng nodir durdonalaridan sanaladi. "Mubayyin", "Harb ishi", "Xatti Boburiy" asarlari va "Aruz" risolasi islom qonunshunosligi, harbiy san'ati, nafis san'at, she'riyat va til nazariyasi sohalari rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Javohirla'l Neru o'zining "Hindistonning kashf etilishi" kitobida: "Bobur dilbar shaxs edi. Uyg'onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo'lib, san'atni, adabiyotni, go'zallikni sevardi" deb yozgan [2,57].

U yoshligidan ilmga chanqoq bo‘lib, o‘z tengdoshlari orasida ajralib turgan shaxs bo‘lgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga qiziq boshlaydi. Boburning ulkan san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Bobur buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazoratchi adabiyotshunos, faqih, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida faoliyat olib borgan [3, 22].

Boburning yetuk shaxs ekanligi nafaqat O‘zbekiston, Markaziy Osiyo xalqlari, balki dunyo xalqlari ham e’tirof-u ehtirom etgan. Boburdan qolgan ijodiy meros haqida so‘z yuritilganda, u yaratgan “Boburnoma” asari haqida to‘xtalmay hech ilojimiz yo‘q.

“Boburnoma” o‘zbek va umumturkiy adabiyotning mashhur qomusiy asarlaridandir. Unda Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlariga oid ko‘plab ma’lumotlar jamlangan. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, birinchisi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan voqealarni; ikkinchisi – XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya’ni Afg‘onistonda ro‘y bergan hodisalarni; uchinchisi esa Shimoliy Hindiston xalqlarining XVI asrning birinchi choragidagi tarixiga doir lavhalarni o‘z ichiga oladi. “Boburnoma” – 1500ga yaqin tarixiy shaxs hamda o‘simlik va hayvonot olamiga doir yuzlab nodir ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan qomusiy asar bo‘lib, 20 dan ortiq tilga tarjima qilingan. Muxtasar aytganda, “Boburnoma” o‘quvchiga Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlari tarixi, o‘sha davrda boburiylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti, tabiati va geografiyasi bilan tanishish imkonini beradi. “Boburnoma” ning tarjima qilgan ingliz olimi Uliyam Erskin: “Osiyoda saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fanga, san’atga mehri va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi” [5,8].

Boburning ulkan ijodkorligi shundaki, asarlarida shaxsiy kechinmalarini bayon etish barobarida yuksak g'oyalar, umuminsoniy qadriyatlarni olg'a suradi. Uning ijodida, xususan, she'riyatda ona yurtni chin dildan qo'msash, uning tuprog'iga talpinish, musofirlik iztiroblaridan hasrat, yor-u diyor sog'inchi katta nafosat bilan badiiy talqin etiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur hayotida ro'y bergan keskinliklarning, og'ir tushkunliklarning ruhiyatiga ta'siri, Vatan sog'inchi, unga qaytish umid she'rlarida mohirona tarzda aks etgan:

Tole' yo'q jonimga balolig' bo'ldi
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yurtni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, bu ne yuz qarolig' bo'ldi?!

Shuningdek, Bobur o'z she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolatga, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqiradi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki, yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

Bobur she'riyatida ko'pchilik mutafakkirlar asarlariga xos bo'lgan jihat yaqqol namoyon etilgan – insonning axloqi va barkamolligi masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Shoir inson qadrini ko'tarib, unga ulkan hurmat bilan munosabatda bo'lishini yoqlaydi. Buning zidi bo'lgan sifatlarni qoralaydi. Boburning fikricha, xudbinlik, izzattalablik, baxillik, manmanlik noqobil sifatlardir. Shoir ruboylarida insonning ma'naviy tarbiyasi haqida qimmatli maslahatlar beradi. U ko'z o'ngida yuz berayotgan voqea va hodisalarni ziyraklik bilan kuzatgan. O'zini qiynagan his-

tuyg'ularni chuqur tanqidiy tahlil qilib, ularni yaxshilik va adolat, haqiqat va go'zalik tamoyillariga xizmat qilishga yo'naltira olgan.

Darhaqiqat, Bobur ijodiga nazar tashlar ekanmiz, u ikki she'riy to'plam – devon tuzgan. Bizgacha shulardan faqat bittasi yetib kelgan. Ikkinchisining taqdiri noma'lum. Hozirda bizga uning 400dan ortiq she'ri ma'lum bo'lsa, shundan ikki yuzdan ortig'i ruboiydir. Bobur ruboiylari har jihatdan to'kis, mukammal she'riy asarlar hisoblanadi. Ularda Bobur hayotining manzaralari aks etadi. Shoir o'z umrining achchiq-chuchuk kunlaridan so'z ochadi:

Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi

Yo barcha murodlarni tark etsa kishi

Bu ikki ish muyassar bo'lmasa olamda

Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

Ushbu ruboiyning yozilish holatini ko'z oldimizga keltiraylik. U 19-20 yoshlarda g'ayrati dunyoga sig'magan paytlari. Lekin davlat ishlari, siyosiy ziddiyatlar uni ruhan tushkun holatga tushuradi. Boburning hayoti o'zi tug'ilib o'sgan yurtlardan kechganini yaxshi bilamiz. Shu bois Bobur ruboiylarida *ona Vatanga intilish, g'urbat, hijron* mavzulari keng yoritilgan. Quyidagi ruboiy ham uning yurt sog'inchiga to'la qalbining aks sadosi, o'ziga xos oynasidir:

Ko'pdin berikim yor-u diyorim yo'qdir,

Bir lahzayu bir nafas qarorim yo'qdur.

Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla

Lekin borurimda ixtiyorim yo'qdur.

Birinchi misradayoq yor va diyor sog'inchi juda oshkor va samimiy ifodalanmoqda. Unda muddatning davomiyligi e'tiborni tortadi. Natijaning yomonligi uchun o'zining aybdorligini tan olish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

Boburda mana shunday mardonavorlik har doim ochiq namoyon bo'ladi. Bu yerda ham shu xislatning yana bir qirradi ko'rinib turibdi. Ammo taqdir buyrug'iga bo'ysunmaslikning ham imkoni yo'q. Oxirgi misra mana shu e'tirofning go'zal ifodasi sifatida yaratilgan.

Bobur ruboiylari bu janrni yangi mavzu bilan boyitdi. Ularga hasbi hol ohanglarning yurtsevarlik, vatanparvarlik g'oyalarining ustuvor tarzda singdirilishi mana shu yangilikning bir qismini tashkil etadi. Yana bir yangilik ularning tabiiy, samimiy ruhi bilan belgilanadi. Bobur she'riyati hayotning turli qirralari haqida bahs yuritadi. Asosan hasbi hol xarakterli bo'lib, shoir o'z ko'rgan-kechirgan tuyg'ularini ifodalashga ko'proq e'tibor beradi. Boburning yana bir yirik xizmati she'riy asarlar tilini hayotga yaqinlashirishda, uning sodda va ravon, tushunarli, samimiy bo'lishiga intilishida ko'rinadi. Ba'zan bu g'azallarda og'zaki nutqqa juda yaqin bo'lgan ohanglar sezilib turadi. Bobur o'zbek tilidagi so'zlardan juda o'rinli hamda unumli foydalanadi. Ularning kuchi va qudratini, ichki imkoniyatlarini, tarovatini chuqur his qiladi. Bobur nazarida olamning munavvarligi odamning istaklari, shu istakning amalga oshishi bilan bog'liq. Shoir o'zbek tilining tarovat va nazokatini teran anglagan, nozik tushungan [7].

Mustaqillik davrida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish, uning asarlarini yurtimiz va xorijiy davlatlarda targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, shoir tug'ilgan kun – 14 fevral sanasi har yili mamlakatimiz bo'ylab adabiyot va ilm-ma'rifat bayrami sifatida nishonlanmoqda. Boburshunoslik sohasida ko'plab

tadqiqotlar, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar muntazam o'tkazilmoqda. Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga – uchinchi Renessans davriga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o'rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mohiyatini, uning yosh avlodimiz intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, farzandlarimizni shu asosda Yangi

O‘zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o‘rni va ta’sirini inobatga olib, Bobur Mirzoning ilmiy va ijodiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda: mamlakatimizdagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog‘liq obida va qadamjolarni, jumladan yodgorlik majmualarini ta’mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish; Bobur Mirzo merosiga mansub qo‘lyozma, qadimiy kitoblar, san‘at asarlari va boshqa madaniy

boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit yaratish; xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ilmiy-ijodiy merosi hamda u yashagan davrga oid noyob qo‘lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni davom ettirish kabi ishlar amalga

oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichidagi bu katta yutuqlar O‘zbekistonni dunyo boburshunosligining markaziga aylanishiga xizmat qildi. Bobur hayoti va ijodi bilan xalqimizga ma’nan yaqinlashdi. Barcha bajarilgan ishlarning solnomasi sifatida mamlakatimizda ilk bor shaxsga aloqador qomus, ya’ni “Bobur ensiklopediyasi” yaratildi. 64 bosma toboqli bu ulkan ensiklopediyani yaratishda o‘zbek boburshunos olimlari qatorida Yaponiya, Hindiston, Turkiya, Afg‘oniston va yevropalik olimlar ham faol ishtirok etishdi. Bobur ijodini qirq yildan beri o‘rganib kelayotgan yaponiyalik boburshunos olim Eyji Mano ensiklopediyaga: “Butun dunyo boburshunoslari uchun muhim qo‘llanma bo‘ladi”, deya baho berdi [8].

Xulosa. O‘zbek xalqining faxr-u g‘ururi bo‘lgan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrida, balki bugungi kunda ham insoniyatning ma’naviy va madaniy rivojiga hissa qo‘shmoqda. Uning tavalludi har yili yurtimizda katta tantana bilan nishonlanib, yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan hurmatni oshirishga undaydi. Bugungi kunda Boburning asarlari yosh avlodning ma’naviy tarbiyasi uchun bebaho manba hisoblanadi. Ularning har biri insonni kamolot sari yetaklaydigan yo‘lni ko‘rsatib beradi. U nafaqat o‘zbek adabiyotining asoschilaridan biri, balki jahon adabiyoti xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan allomadir.

Uning asarlari yosh avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Uning ijodida ilm-ma'rifat, adolat, halollik, ezgulik, ona Vatanga intilish, g'urbat, hijron kabi fazilatlar asosiy o'rinni egallaydi. Boburning asarlari nafaqat badiiy asarlar sifatida, balki yoshlarga ma'naviy yo'ldosh bo'luvchi kitoblar sifatida ham dolzarbdir. U yoshlarni ilm olishga va uni qadrlashga da'vat etgan. U ilmni insonning eng oliy boyligi, hayot yo'lini yorituvchi nur sifatida tasvirlaydi. Uning ijodidan taralayotgan nur bugungi kunda ham yosh avlodni ezgulikka, ilmga va insoniylikka boshlamoqda. Shunday ekan, Bobur asarlarini o'qish va o'rganish orqali biz nafaqat uning merosiga hurmat bajo keltiramiz, balki o'z ma'naviy dunyoqarashimizni boyitamiz. Bobur nafaqat o'z davri, balki bugungi avlod uchun ham ibrat maktabidir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Komilov. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: Sharq, 1996, 212bet.
2. Manba: <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article>
3. X.Hasanov. Bobur – sayyoh va tabiatshunos. – Toshkent: O'zbekiston, 1966, 72 bet.
4. Teshaboyev.B. Boburning – Boburnoma asaridan foydalanish. – Toshkent: Xalq ta'limi, 1993, 312 bet.
5. A. Ro'ziyev. Boburnoma – maftunkor asar. – Toshkent: Hurriyat, 2009, 440 bet.
6. Manba: <https://uz.wikipedia.org/w/index.php>
7. S.Azimjonova. Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent, 1995.
8. Manba: Bobur va uning zamondoshlari ijodini o'rganish (ilmiy maqolalar to'plami). – Samarqand, 1983.